

UDK: 330.111.9

**Janabayeva Gulbahor Ashirovna**

*Oriental universiteti "Moliya va menejment"*

*kafedra stajyor o'qituvchisi*

*gulbakhorjanabaeva@gmail.com*

## KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKDA AYOLLAR BANDLIGINI TA'MINLASH MEKANIZMLARI

**Annotatsiya** Ushbu maqolada O'zbekiston sharoitida ayollarni kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish orqali ularning iqtisodiy faolligini oshirish, moliyaviy mustaqilligini ta'minlash va bandlik darajasini ko'tarish masalalari chuqur tahlil qilinadi.. Tadqiqotda ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari - jumladan, mikromoliyalashtirish, imtiyozli kreditlar, biznes-inkubatorlar, mentorlik dasturlari va genderga sezgir institutsional yondashuvlar - integratsiyalashgan strategik tizim sifatida baholangan. Shuningdek, "kollektiv agentlik", tarmoq asosida rivojlanish va ayollarni iqtisodiy hayotga chuqur jalb etuvchi yangi ijtimoiy mexanizmlar konseptual nuqtai nazardan yoritilgan

**Kalit so'zlar :** ayollar tadbirkorligi, kichik biznes, gender tengligi, moliyaviy inklyuzivlik, iqtisodiy faollik, institutsional mexanizmlar, mentorlik, ijtimoiy to'siqlar, barqarorlik.

### MECHANISMS FOR ENSURING WOMEN'S EMPLOYMENT IN SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP

**Abstract** This article provides an in-depth analysis of increasing women's economic activity, ensuring their financial independence, and raising employment levels by promoting their participation in small business and entrepreneurial activities within the context of Uzbekistan. The research evaluates mechanisms supporting women's entrepreneurship - such as microfinancing, preferential loans, business incubators, mentoring programs, and gender-sensitive institutional approaches - as an integrated strategic system. Additionally, the concepts of "collective agency," network-based development, and new social mechanisms that deeply engage women in economic life are examined from a conceptual perspective.

**Keywords:** women's entrepreneurship, small business, gender equality, financial inclusion, economic activity, institutional mechanisms, mentoring, social barriers, sustainability.

### МЕХАНИЗМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЗАНЯТОСТИ ЖЕНЩИН В СФЕРЕ МАЛОГО БИЗНЕСА И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

**Аннотация** В данной статье представлен углублённый анализ повышения экономической активности женщин, обеспечения их финансовой независимости и роста уровня занятости путём расширения их участия в сфере малого бизнеса и предпринимательства в условиях Узбекистана.

Исследование оценивает механизмы поддержки женского предпринимательства - такие как микрофинансирование, льготные кредиты, бизнес-инкубаторы, программы наставничества и институциональные гендерно-чувствительные подходы - как единую стратегическую систему. Кроме того, с концептуальной точки зрения рассматриваются понятия «коллективной субъектности», развитие на основе сетевых связей и новые социальные механизмы, способствующие более глубокому вовлечению женщин в экономическую жизнь.

**Ключевые слова:** женское предпринимательство, малый бизнес, гендерное равенство, финансовая инклюзия, экономическая активность, институциональные механизмы, наставничество, социальные барьеры, устойчивое развитие.

### **1. Kirish**

Bugungi kunda iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy taraqqiyotga erishishda ayollarni iqtisodiy hayotga faol jalb etish muhim omil hisoblanadi. Xususan, kichik biznes va tadbirkorlik sohalari ayollar uchun bandlikni ta'minlash, daromad manbai yaratish, o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish hamda ijtimoiy himoyalanganlik darajasini oshirishda qulay imkoniyatlar yaratadi.

O'zbekiston Respublikasida gender tenglikni ta'minlash va ayollar huquqlarini mustahkamlash borasida qator huquqiy - me'yoriy hujjatlar va davlat dasturlari qabul qilingan bo'lib, ularning amaliyotga tatbiq etilishi ayollarning iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ayollar uchun nafaqat iqtisodiy mustaqillikni, balki oila va jamiyatda ijtimoiy mavqeiini kuchaytirish vositasi hamdir. Shu bilan birga, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda ularning moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish, maslahat va axborot xizmatlaridan foydalanishini ta'minlash kabi muhim vazifalar dolzarb hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotining jadal transformatsiyalashuvi sharoitida ayollarni kichik biznes va tadbirkorlik sohasiga faol jalb etish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar yanada moslashuvchan va inklyuziv bandlik modellari talab etadi, bunda ayollar o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, moliyaviy mustaqillikni oshirish va jamiyatning barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Kichik biznes – bu xo'jalik yuritishning moslashuvchan, kam resurs talab qiladigan, tez rivojlanadigan va mehnatga asoslangan shaklidir. U ko'pincha kichik hajmli kapital, cheklangan texnologik baza va kam sonli ishchi kuchiga ega bo'lishi bilan tavsiflanadi[1]. Jahon amaliyotida kichik biznes nafaqat iqtisodiy o'sish, balki bandlikni oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston sharoitida ayniqsa o'tish davrida kichik biznes ayollar uchun iqtisodiy faollikka erishish, moliyaviy mustaqillikni shakllantirish va o'z salohiyatini amalga oshirishda eng maqbul yo'nalishlardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Bu yo'nalish ayollarni mehnat bozoriga jalb etish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish va ularning hayot darajasini oshirishda alohida o'rin tutadi.

Ayollarning kichik tadbirkorlikdagi bandligi nafaqat xonadonlar daromadining o'sishiga, balki kambag'allik darajasining pasayishiga, ijtimoiy tuzilmaning barqarorligiga hamda oilaviy qadriyatlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ayollar tadbirkorlik faoliyatida qator institutsional, madaniy va iqtisodiy to'siqlarga duch kelmoqda. Ularga boshlang'ich kapital yetishmasligi, moliyaviy resurslarga cheklangan kirish imkoniyati, huquqiy savodsizlik hamda gender stereotiplari kiradi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ayollar iqtisodiy faolligini oshirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunga mikromoliyalashtirish dasturlari, biznes yuritish ko'nikmalarini o'rgatish, soliq imtiyozlari joriy etilishi va genderga yo'naltirilgan siyosatlarni amalga oshirish kiradi. Xususan, ayollarni kooperativ harakatlarga, hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi va raqamli tadbirkorlik faoliyatiga jalb etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biroq, real natijalarga erishish uchun ayollar bandligini ta'minlovchi mexanizmlarni tizimlashtirish va takomillashtirish muhim strategik vazifa hisoblanadi.

### **2. Adabiyotlar tahlili**

Zamonaviy adabiyotalarda kichik biznes va tadbirkorlikda ayollar bandligini samarali tashkil etishda eng asosiy to'siqlardan biri - bu moliyaviy resurslarga teng kirish imkoniyatlarining yetarli emasligidir. Ayollar ko'p hollarda kreditlar, investitsiyalar va grant dasturlaridan foydalanishda turli to'siqlarga duch keladilar. Moliyalashtirish sohasida kuzatilayotgan gender disproporsiyasi - ya'ni erkaklar va ayollar o'rtasida moliyaviy resurslardan foydalanish, kredit olish yoki investitsiya jalb qilish imkoniyatlaridagi nomutanosiblik - ayol tadbirkorlar uchun muhim to'siqlardan biri hisoblanadi. Bu nomutanosiblik ko'pincha moliyaviy institutlar tomonidan ayollarga nisbatan mavjud bo'lgan ishonchsizlik, ularning biznes yuritish salohiyatiga past baho berish, yoki genderga asoslangan stereotiplardan kelib chiqadi.

Natijada, ko'plab ayollar o'z tadbirkorlik tashabbuslarini boshlash yoki kengaytirish imkoniyatidan mahrum bo'lmoqda. Bunday holatlar nafaqat gender tengligini buzadi, balki mamlakat iqtisodiyotining to'liq salohiyatini ishga solishga ham to'sqinlik qiladi. Shu bois moliyaviy tizimda genderga nisbatan adolatli va teng yondashuvni shakllantirish - ayollar tadbirkorligini rivojlantirish va ularning iqtisodiy faolligini oshirishning zaruriy shartidir.

Bu holat nafaqat ayollarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga, balki mehnat bozorida umumiy faolligini pasaytirishga ham olib keladi.

Shu bois, moliyaviy tenglikni ta'minlash - ayollar tadbirkorligini rivojlantirish va ularning kichik biznesdagi bandligini kengaytirishning asosiy mexanizmi sifatida qaralishi lozim. Bu borada davlat siyosatida "ayollar uchun moliyaviy platformalar", mikro kreditlash, imtiyozli grant dasturlari, hamda "faqat ayollar uchun" sarmoyaviy fondlar tashkil etilishi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, moliya tashkilotlari faoliyatida ayol tadbirkorlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan yondashuvlarni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Xususan, ayollar ehtiyojlari va biznes yuritishdagi o'ziga xosliklarini chuqur tahlil qilish, ularga moslashtirilgan moliyaviy xizmatlar paketini ishlab chiqish, hamda ushbu xizmatlarni ko'rsatadigan maxsus bo'limlar faoliyatini rivojlantirish orqali moliyaviy infratuzilmaning inkluzivligini oshirish mumkin.

Bu borada turli olimlar turlicha yondashuvlarni ilgari surishgan, xususan, Rossiyalik boshqaruv maktabi vakillari ham kichik biznes va tadbirkorlikda ayollar bandligini ta'minlash haqida o'z fikrlarini bildirib o'tganlar. Pohvoshev V. A., Kolesnikova O. A. (2015) ta'rifiga ko'ra, ayollar tadbirkorligini ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va bandlik darajasini oshirish vositasi sifatida ko'radi. Unga ko'ra, kichik biznesda ayollarning faolligi ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirib, kambag'allikni kamaytirishga xizmat qiladi. U bandlikni oshirish mexanizmlari sifatida moliyaviy ko'mak, bilim saviyasini oshirish, ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi.[2.]

Bundan tashqari, boshqa olimning fikri talqin qilingan Пасказова Э. Б (2013) kichik tadbirkorlikda ayollar bandligining ortishi nafaqat ularning iqtisodiy faolligini oshiradi, balki butun mamlakatning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqotlarda ayollarni tadbirkorlikka keng jalb etishda duch kelinayotgan asosiy to'siqlar - moliyaviy resurslarga yetarli kirish imkoniyatining cheklanganligi, jamiyatda mavjud gender stereotiplari va institutsional muammolar sifatida ko'rsatiladi. Hamda, muammolarni bartaraf etish maqsadida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlovchi dasturlarni kengaytirish va imtiyozli kredit siyosatini kuchaytirishni tavsiya etadi.[3.]

Gender stereotiplari - bu jamiyat ongida shakllangan barqaror, biroq ko'pincha haqiqatdan yiroq va cheklovchi tasavvurlar bo'lib, insonlarning ijtimoiy roli, xatti-harakati, kasb tanlovi yoki hayotdagi o'rnini ularning individual salohiyati va shaxsiy tanlovidan ko'ra, faqat jinsiy mansubligiga asoslab belgilaydi. Bu stereotiplar ijtimoiy munosabatlarda jinslar o'rtasidagi tenglikka to'siq bo'lib, ayollar va erkaklarning imkoniyatlarini sun'iy ravishda chegaralaydi, ularning to'laqonli ishtiroki va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.[4]

Gender stereotiplari: ayollarning ishga joylashish imkoniyatlarini cheklaydi; erkaklarning ruhiy holatini bostiradi; teng imkoniyatlar tizimiga to'siq bo'ladi.

Masalan, (Боронкова, 2014) Боронковaning fikriga ko'ra, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda psixologik, ijtimoiy va institutsional omillarni hal qiluvchi ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Unga ko'ra, gender tengligini ta'minlash va biznes muhitida ayollarga nisbatan ijobiy sharoitlar yaratish ularning bandligini oshirishning muhim shartidir. Ayollarning iqtisodiy faol qatnashuvi mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. [5.]

Shunday qilib, Shepeleva (2016) nafaqat ayollar tadbirkorligini qo'llab -quvvatlashda ijtimoiy infratuzilmaning rivoji balki biznes bilimlarini oshirish va soliq yengilliklarining ahamiyatini ta'kidlaydi. U kichik biznesda ayollar bandligini kengaytirish orqali nafaqat ijtimoiy muammolarni, balki iqtisodiy barqarorlikni ham ta'minlash mumkinligini qayd etadi. [6.]

Shu bilan birga, Ayollar uchun maxsus tashkil etilgan biznes tarmoqlari ularning iqtisodiy hayotdagi ishtirokini faollashtirishga xizmat qiluvchi muhim vositaga aylandi. Bu tarmoqlar

ayollarni resurslar, buyurtmalar va loyihalar bilan bog'lovchi vosita sifatida harakat qiladi. McAdam (2019) tadqiqotlarida qayd etilishicha, bunday tarmoqlar ayollarni umumiy biznes tarmoqlarida kam ishtirok etayotganini inobatga olgan holda paydo bo'lgan va tobora keng tarqalmoqda. Ular ayollar o'rtasida jamoaviy hamkorlikni rivojlantirib, "kollektiv agentlik" (collective agency) asosida faol iqtisodiy ishtirokni rag'batlantiradi.

Yillar davomida texnik va taxnologiyalar shakillanib bormoqda Yevropa Ittifoqining jamoat siyosati ham aynan shu yo'nalishda shakllanmoqda. Rasmiy siyosatlarida ayollar tadbirkorligini qo'llab - quvvatlash choralari doirasida maxsus tarmoqlarni tashkil etish orqali ularga yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu orqali ayollar nafaqat o'z biznesini boshlash, balki uni barqaror rivojlantirishda ham zarur bilim, axborot va aloqalarga ega bo'lmoqda.[7.]

Biznes muhitida ayollarga nisbatan ayrim nozik, lekin muhim cheklavlar mavjud bo'lib, bu holatlar ular uchun samarali aloqalar o'rnatish va muhim ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatlarini kamaytiradi. Ba'zan erkaklar ayollar bilan muloqotda ehtiyotkorroq yoki noqulay his qilishi natijasida, suhbatlar yuzaki va cheklangan doirada kechadi. Bundan tashqari, Moletta (2021) qayd etganidek, ayollar ko'pincha aralash biznes tarmoqlariga (ya'ni, erkak va ayollar ishtirokidagi umumiy tarmoqlar) qabul qilinmaydi yoki ular bu tarmoqlarga kamroq taklif etiladi. Bunday tarmoqlarda erkak tadbirkorlar ko'proq o'zlariga o'xshash erkak hamkorlarini taklif qilishi orqali, ayollarni bilvosita chetda qoldiruvchi "inklyuziya emas, eksklyuziya sikli"ni shakllantiradi.[8]

Natijada, ayollar foydali biznes aloqalarini rivojlantirishda va yangi, dolzarb biznes axborotlariga ega bo'lishda erkaklarga qaraganda ko'proq to'siqlarga duch keladi. Bu esa, ularning bozor imkoniyatlaridan foydalanish darajasiga bevosita ta'sir qiladi.

Tadbirkorlik muhitida ayollar ko'pincha ozchilik sifatida qaraladi. Biroq, Kubberød va boshqalar (2021) ta'kidlaganidek, bu ozchilik holati zaiflik emas, balki farqlilik orqali ajralib turish va kuch manbaiga aylanish imkoniyatidir. Ayollar ushbu mavqeni o'ziga xos yondashuv bilan - ya'ni "tegishli emaslikni qabul qilishni o'rganish" orqali - kuchli strategik holatga aylantira oladilar.

Bu pozitsiyada ayol tadbirkorlar individual tashabbus va subyektiv faollik (agency) orqali tizimli tengsizliklarni kamaytirish yo'lida harakat qilishi mumkin. Ya'ni, ular o'zlarining mustaqil qaror qabul qilish va resurslarni jalb etish qobiliyati bilan mavjud ijtimoiy to'siqlarni zaiflashtirishga erishadi.

Bunday holatda, ayollar biznes tarmoqlariga chuqur integratsiyalashgan taqdirda, ular nafaqat resurslarga, balki strategik axborot, moliyaviy imkoniyatlar va professional sheriklik aloqalariga ham ega bo'ladilar. Shu tariqa, ayollarning ozchilik mavqeyi ustuvorlikka aylanishi mumkin bo'ladi - agar u ongli ravishda ijtimoiy va iqtisodiy strategiyalarga aylantirilsa.[9.]

Hozirgi vaqtda Woodward (2021) ta'kidlaganidek, ayol tadbirkorlar aralash biznes tarmoqlarida faol ishtirok etish orqali qo'shimcha resurslar, bilim va aloqalarga ega bo'lishga harakat qiladilar. Biroq bu resurslar ayollarning o'z bizneslarini mustaqil yuritish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qilishi kerak.

Shu sababli, tizimli gender tafovutlarini kamaytirishga qaratilgan siyosiy choralar faqatgina ayollar uchun alohida tarmoqlar tashkil etish bilan cheklanmasligi kerak. Aksincha, istalgan turdagi tarmoqlarda ishtirok etayotgan ayol tadbirkorlarning chuqur integratsiyasini - ya'ni "embeddedness" darajasini - oshirishga e'tibor qaratilishi zarur.

Bu yondashuv ayollarga tadbirkorlikni o'zlariga qulay shartlar asosida amalga oshirish imkonini beradi. Natijada, biznes tarmoqlari nafaqat ayollar, balki barcha tadbirkorlar uchun yanada jozibador va teng imkoniyatli platformaga aylanadi. [10.]

Shunga qaramay, Kuckel J. va Lyons T. S. tomonidan ta'kidlanganidek, tadbirkorlik zamonaviy global muammolarga kompleks yechim topish yo'lida eng kuchli mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. U nafaqat iqtisodiy faoliyatning harakatlantiruvchi kuchi, balki ijtimoiy o'zgarishlarning strategik vositasi hisoblanadi. Tadbirkorlik orqali innovatsion g'oyalar amaliyotga tatbiq qilinadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi, mahalliy va global miqyosdagi ehtiyojlar

qondiriladi, shuningdek, yangi texnologiyalar va xizmatlar orqali inson hayot sifati yaxshilanadi.[11]

Shunday bilan birga, “E. Duflo o‘zining fikrlarida ayollarning iqtisodiy faolligi va mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni asoslab beradi. U gender tengligini mustahkamlash orqali kambag‘allikni kamaytirish, farovonlikni oshirish va institutsional islohotlarni jadallashtirish mumkinligini isbotlaydi.[12]

### **3. Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqotning metodologiyasi kichik biznes va tadbirkorlik sohasida ayollar bandligini ta‘minlash orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish imkoniyatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda ayollarni iqtisodiy faoliyatga jalb etish, mavjud to‘siqlarni aniqlash va bandlikni oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni shakllantirish masalalari o‘rganilib, tahlil, sintez, va abstrakt mantiqiy va tanqidiy fikrlash, hamda umumlashtirish usullardan foydalanildi.

### **4. Tahlil va natijalar**

Hozirgi vaqtda iqtisodiy va ijtimoiy adabiyotlarda mualliflar tomonidan “kichik biznesda ayollar bandligini ta‘minlash” masalasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu sohadagi tadqiqotlar nisbatan yangi bo‘lsa-da, jadal rivojlanmoqda va dolzarbligi oshib bormoqda. Ayniqsa, globallashtirish va bozor iqtisodiyoti sharoitida gender muvozanatining buzilishi, mehnat bozorida tengsizlik va ayollar uchun resurslarga cheklangan kirish imkoniyatlari ushbu mavzuga qiziqishni yanada kuchaytirmoqda.


Mazkur sharoitda, ayollarni tadbirkorlik va kichik biznesga jalb etish orqali ularning iqtisodiy faolligini oshirish, bandlikni ta‘minlash va ijtimoiy himoyani mustahkamlash muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlari faoliyatida ayollar duch kelayotgan to‘siq va muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etishga qaratilgan samarali mexanizmlarni ishlab chiqish zarurligi kun tartibiga chiqmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayollar kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini boshlashda asosan o‘zlarining ta‘lim darajasi, kasbiy tajribasi, xizmat ko‘rsatish sifati, ishonchliligi va ijtimoiy mas‘uliyatga bo‘lgan yondashuvlariga asoslanadilar. Ayollar tadbirkorligining o‘ziga xos jihati shundaki, ular faqat iqtisodiy foyda emas, balki ijtimoiy barqarorlik va insoniy qadriyatlarni ham inobatga oladi. Ayniqsa, ayollar tomonidan olib borilayotgan kichik biznes faoliyati barqaror amaliyotlarni shakllantirish, ekspluatatsiyani oldini olish va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ayollar tadbirkorligi ijtimoiy - iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda, ayniqsa xizmat ko‘rsatish va turizm sohalarida, muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, ayollar o‘z faoliyatlari orqali mahalliy darajada ish o‘rinlari yaratadi, resurslardan oqilona foydalanadi va jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarga turtki bo‘ladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ayol va erkak tadbirkorlar o‘rtasida faoliyat yuritish uslubi va barqarorlikka munosabatda farqlar mavjud. Bugungi kunda amaldagi tadbirkorlik nazariyalari bu farqlarni to‘liq qamrab ololmaydi, shuning uchun ayollar tadbirkorligini atrof-muhit, ijtimoiy innovatsiyalar va gender yondashuvi asosida qayta ko‘rib chiqish zarur. Ayollarning ichki motivatsiyasi, ijtimoiy faolligi, qadriyatlari va barqarorlikka bo‘lgan ongli munosabati ularni ekologik va ijtimoiy jihatdan mas‘uliyatli biznes yo‘nalishlariga jalb etishga zamin yaratadi.

Tadbirkorlikda ayollar bandligini ta‘minlash mexanizmlari - bu ayollarni kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga faol jalb etish orqali ularning iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan kompleks yondashuvlar tizimidir. Bunday mexanizmlar tarkibiga huquqiy va institutsional asoslar, moliyaviy ko‘mak, ta‘lim va malaka oshirish, mentorlik dasturlari, bozorga kirish imkoniyatlari hamda ijtimoiy infratuzilma kiradi.



### 1 – rasm Kichik biznesda ayollar bandligini taminlash mexanizmlar tasnifi<sup>1</sup>


Tadbirkorlikda ayollar bandligini ta'minlash mexanizmlari tizimli va kompleks yondashuvni talab qiladi. Rasmda ko'rsatilganidek, bu mexanizmlar davlat siyosatidan tortib, normativ-huquqiy infratuzilma, moliyaviy resurslarga kirish, ta'lim va malaka oshirish, inson kapitali, bozorlarga chiqish imkoniyatlari va universitetlarning katalizator sifatidagi roligacha keng doirani qamrab oladi. Xususan, mentorlik va ko'mak tizimlari (ya'ni, tajribali mutaxassislar tomonidan yangi ayol tadbirkorlarga maslahat, ruhiy ko'mak, tarmoq imkoniyatlari va amaliy yo'l-yo'riq berilishi) ayollarni ishbilarmonlik muhitiga ijtimoiy va psixologik jihatdan integratsiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu omillar o'zaro bog'liq holda ishlaganda, ayollar bandligini rag'batlantirishga xizmat qiluvchi barqaror institutsional model shakllanadi.

Shu bilan birga, universitetlar innovatsion markaz sifatida ilmiy, texnologik va ijtimoiy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishda "katalizator" vazifasini bajaradi. Mahalliy va global bozorlarga integratsiya esa ayollar tadbirkorligini real iqtisodiy aylanishga olib kiradi. Ushbu barcha mexanizmlar o'zaro bog'langan holda ishlaganda, nafaqat ayollar bandligi oshadi, balki jamiyatda barqaror iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot uchun muhim zamin yaratiladi.

Ushbu rasmda O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish va ularning iqtisodiy bandligini ta'minlash bo'yicha mavjud institutsional mexanizmlarning o'zaro funksional integratsiyasini aks ettirilgan. Bu tizimda Prezident va Vazirlar Mahkamasi tomonidan shakllantiriladigan Iqtisodiyot va moliya vazirligi strategik muvofiqlashtiruvchi rolni bajaradi. Uning tarkibidagi Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash agentligi ayol tadbirkorlar uchun kreditlar, grantlar va soliq imtiyozlari orqali moliyaviy vositalarni taqdim etadi. Hamda, hududiy hokimliklar esa davlat dasturlarining mahalliy darajada amalga oshirilishi, yer ajratilishi va doimiy nazorat jarayonlari uchun mas'ul hisoblanadi.

Shu bilan birga, Savdo-sanoat palatasi tadbirkor ayollarni huquqiy, maslahat va konsalting yordami bilan ta'minlaydi. Tizimda Ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash markazi, Yoshlar - kelajagimiz jamg'armasi, biznes-inkubatorlar va "Yagona darcha" markazlari ayollar uchun qulay ishbilarmonlik muhiti yaratishda bevosita amaliy rol o'ynaydi. Ushbu ko'p darajali va institutsional yondashuv ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularni barqaror tadbirkorlik tizimiga jalb etish hamda gender tenglikni amalda ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

<sup>1</sup> Tadqiqotchi ishlanmasi



**2 - rasm O'zbekiston Respublikasida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha kompleks institutsional mexanizmlar<sup>1</sup>**

**1 - Jadval**

**Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillar guruhi<sup>2</sup>**

| FAKTORLAR GURUHI                     | FAKTORLAR (MOSLASHTIRILGAN VA ASOSLI FIKRLAR)                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |
|--------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Moliyaviy va texnologik imkoniyatlar | Ayollarning kichik biznesda faol ishtirokini rag'batlantirish uchun ularni boshlang'ich kapital bilan ta'minlash, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar ajratish zarur. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion uskunalarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan o'quv kurslari, inkubatsiya markazlari va texnoparklar orqali qo'llab-quvvatlash ayollar bandligini ta'minlashda muhim omil bo'la oladi. |
| Huquqiy va institutsional sharoitlar | Ayollar tadbirkorligi uchun qulay muhit yaratish maqsadida davlat darajasida gender tengligini kafolatlovchi qonunlar va normativ hujjatlar qabul qilinishi lozim. Tadbirkor ayollarni ro'yxatga olish, soliq imtiyozlari berish va ularni huquqiy himoya qilish mexanizmlari ayollarning iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.                                                                          |
| Tashkiliy va boshqaruv yondashuvlari | Kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni tashkil etishda ayollar uchun moslashuvchan mehnat shartlarini yaratish, jumladan yarim kunlik ish, masofaviy ish, oilaviy korxonalar tizimini rivojlantirish zarur. Bundan tashqari, ayollarni rahbarlikka tayyorlovchi seminar-treninglar, liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish dasturlari bilan qo'llab-quvvatlash kerak.                                            |
| Ijtimoiy-ma'naviy va madaniy omillar | Ayollarni mehnat bozoriga faol jalb qilishda jamiyatda ularning o'rnini tan olish, ijtimoiy stereotiplarni yo'qotish, ijobiy ijtimoiy rasmiylashtirish orqali motivatsiyani oshirish zarur. Oilaviy va jamoaviy darajada ayollarning erkin fikrlashi, o'zini ifoda etishi, tadbirkorlik g'oyalari ilgari surishi uchun ma'naviy qo'llab-quvvatlash muhim hisoblanadi.                                             |

<sup>1</sup> Nazariy bilimlarga asoslanib tadqiqotchi ishlanmasi

<sup>2</sup> Tadqiqotchi ishlanmasi

Mazkur jadval ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga bevosita ta'sir etuvchi muhim omillar guruhini tizimli tarzda tasniflaydi. Moliyaviy va texnologik imkoniyatlar ayol tadbirkorlarning biznes boshlashdagi asosiy ehtiyojlari - boshlang'ich kapital, imtiyozli kreditlar, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion infratuzilmalarga kirish bilan bog'liq. Huquqiy va institutsional sharoitlar esa gender tengligini kafolatlaydigan qonunlar, ruxsatnomalar, soliqlik yengilliklari va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlovchi normativ muhitni anglatadi.

Tashkiliy va boshqaruv yondashuvlari ayollar uchun moslashuvchan mehnat sharoitlarini yaratish, oilaviy va kichik biznesni qo'llab - quvvatlovchi rahbarlik dasturlari orqali ularni faol tadbirkorlik tizimiga jalb etishni nazarda tutadi. Ushbu omillar uyg'unlashgan holda ishlaganda, ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularni barqaror tadbirkorlik muhitiga jalb qilish va gender tenglikni amalda ta'minlash imkonini beradi.

## 5. Xulosa

Yuqoridagi tahlilardan kelib chiqib xulosa va erishilgan natijalarni jam qilar ekanmiz:

Ayollarni kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Bu jarayon nafaqat ayollarning iqtisodiy faolligini oshiradi, balki jamiyatda barqaror ijtimoiy muvozanatni shakllantirish, oilaviy farovonlikni ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishda ham muhim strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston tajribasida bu yo'nalishda qator institutsional va iqtisodiy mexanizmlar - jumladan, mikromoliyalashtirish tizimlari, imtiyozli kredit va grant dasturlari, biznes-inkubatorlar, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlovchi markazlar va malaka oshirish tashabbuslari - shakllanmoqda. Ayollarni iqtisodiy hayotga faol jalb etish orqali ularning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash, innovatsion fikrlashini rag'batlantirish va xizmat ko'rsatish, hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi hamda raqamli iqtisodiyot sohalarida imkoniyatlarini kengaytirish imkoni paydo bo'lmoqda. Shu bois, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash nafaqat ijtimoiy adolat tamoyilini ta'minlash, balki milliy iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiluvchi strategik ustuvorlikdir.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda faqat moliyaviy ko'mak yetarli emas - bu jarayon kompleks yondashuvni, xususan, madaniy va ijtimoiy to'siqlarni bartaraf etishni ham talab qiladi. Hanuzgacha mavjud bo'lgan gender stereotiplari, erkaklar ustunlik qilayotgan biznes tarmoqlarida ayollarni to'liq tan olmaslik, ayollarga nisbatan past ishonch darajasi, shuningdek institutsional tizimlarda gender sezgirlikning sustligi bu boradagi muhim cheklovlar sirasiga kiradi. Ilmiy adabiyotlarda ayollar uchun alohida biznes tarmoqlari, tarmoq asosida rivojlanish (network-based development), "kollektiv agentlik" (collective agency) va ayollarni o'zaro axborot, tajriba va resurs almashinuviga jalb etuvchi model sifatida talqin qilinmoqda. Shu sababli, ayollar bandligini ta'minlash va ularni kichik biznesga faol jalb etish jarayoni - bu faqat iqtisodiy resurslar bilan bog'liq mexanizm emas, balki keng miqyosli ijtimoiy ongning shakllantirish, madaniy transformatsiya va institutlararo integratsiyani talab qiluvchi kompleks strategik yondashuvdir.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Назаров Ш. Ш. Кичик бизнес асослари. - дарслик. - Тошкент: Иқтисодиёт, 2021. - 184 б.
2. Коннелл Р. У. Гендер и власть: общество, личность и сексуальная политика. - М.: Институт научной информации по общественным наукам РАН, 2003. - 320 с.
3. Похощев В. А., Колесникова О. А. Развитие женского предпринимательства как фактор эффективной занятости. МИР (Модернизация. Инновации. Развитие). - 2015. - №1(21). - С. 103-107.
4. Рассказова Е. В. Занятость женщин в сфере малого предпринимательства: проблемы и перспективы. Экономика и предпринимательство. - 2013. - №2.
5. Воронкова Т. Г. Женское предпринимательство в условиях рынка: проблемы и перспективы. Экономика и управление. - 2014. - №3(35). - С. 45-49.

6. Шепелева Л. В. Социально-экономические факторы развития женского предпринимательства в России Вестник Томского государственного университета. Экономика. – 2016. – №2(34). – С. 87–92.

7. McAdam, M., Harrison, R.T. and Leitch, C.M. (2019), “Stories from the field: women’s networking as gender capital in entrepreneurial ecosystems”, *Small Business Economics*, Vol. 53 No. 2, pp. 459-474,

8. Moletta, J., De Carvalho, G.D.G., Do Nascimento, R.F., Barboza, B.M.L., Resende, L.M. and Pontes, J.(2021), “Business networks of women entrepreneurs: an analysis of the expectation and reality of factors that affect trust in a business network”, *Journal of Intelligent Manufacturing*, Vol. 34 No. 3, pp. 1021-1036,

9. Kubberød, E., Jones, S. and Pettersen, I.B. (2021), “Learning to not belong: entrepreneurial learning experiences of women high-tech entrepreneurs”, *International Journal of Entrepreneurial Behavior and Research*, Vol. 27 No. 8, pp. 1983-2008,

10. Woodwark, M., Wood, A. and Schnarr, K. (2021), “Standing on the shoulders of giantesses: how women technology founders use single and mixed gender networks for success and change”, *International Journal of Gender and Entrepreneurship*, Vol. 13 No. 4, pp. 420-448, d

11. Kickul, J., & Lyons, T. S. (2016). *Understanding Social Entrepreneurship: The Relentless Pursuit of Mission in an Ever Changing World* (2nd ed.). Routledge.

12. Duflo, E. Women Empowerment and Economic Development / E. Duflo // *Journal of Economic Literature*. - 2012. - Vol. 50, No. 4. - P. 1051–1079